**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

<table>
<tr><th colspan="3">“Veterinariya va chorvachilik fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha</th></tr>
<tr><th>№</th><th>Amaliy<br>loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td></td><td>Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini kanalardan (Ixodidae) muhofaza qilishning yangi ekologik xavfsiz texnologiyasini yaratish<br></td><td>Tadqiqotning shakli: Amaliy.<br>Ilmiy-tadqiqot natijalari:<br>- chorvachilik fermer xo‘jaliklari hamda shaxsiy, xususiy qoramolchilik xo‘jaliklarida iksod kanalarining epizootik holati o‘rganiladi;<br>- qishloq xo‘jaligi hayvonlarini iksod kanalardan muhofaza qilish hamda ularga qarshi kurash bo‘yicha yangi ekologik xavfsiz usul va vositalarning samaradorligi laboratoriya sharoitida qoramollarda va turli yoshdagi kanalarda sinovdan o‘tkaziladi;<br>- laboratoriya sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan yangi ekologik xavfsiz usullar va vositalar chorvachilik fermer xo‘jaliklari va aholi xonadonlarida kanalarga qarshi sinovdan o‘tkaziladi;<br>- olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar natijasida yaratilgan ekologik xavfsiz usul va vositalarni qo‘llash natijasida qishloq xo‘jalik hayvonlarida iksod kanalari tarqalishini oldi olinadi hamda ular tomonidan keltirib chiqarilgan kasalliklarni samarali davolash usullari ishlab chiqiladi.<br>- qishloq xo‘jaligi hayvonlarini kanalardan (Ixodidae) muhofaza qilishning yangi ekologik xavfsiz texnologiyasini yaratiladi.<br>Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.<br>Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo’mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</td></tr>
</table>